

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Uzoqova Yulduzxon Dilshodbek qizi

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti

II bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek va ingliz xalq maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda shu xalqlarning o‘ziga xos madaniyati, mentalitetini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maqollar, mentalitet, tajriba, semantika, madaniyat, majoziy obraz, qadriyatlar.

Tilshunoslik va folklorshunoslikda xalq og‘zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo‘lgan maqollar eng muhim mavzular qatori o‘rganilib kelinmoqda. Maqollar ma‘lum bir sharoit taqozosi sababli sinalgan hayotiy tajribalardan kelib chiqqan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm o‘laroq yuzaga keladi. Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir [5].

Maqollar tabiatiga ko‘ra xalqaro janr bo‘lib, o‘zida muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosa, hukmlarini mujassamlashtirgan, o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lgan ifodalardir. Har bir xalq hayoti, tarixida umumiyliklar bo‘lgani kabi, xalqlar og‘zaki ijodida ham bir-biriga yaqin, hamohang maqollar ko‘p uchraydi.

Ingliz xalq maqollari ham folklorlarda o‘rganilishi va yana bir qancha jihatlari bilan o‘zbek xalq maqollariga o‘xshash holda umumiylik kasb etadi. Xalq maqollarini kuzatar ekanmiz, ularning qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligi – xronologiyasi ham e‘tiborimizni tortadi. Masalan, ingliz tilidagi “*Bolt is soon shot, A fool’s*” maqolini ko‘rib chiqsak, ushbu maqolning tarjimasini – ahmoqning kamon o‘qi tezda otilar. O‘zbek tilidagi muqobili – “*Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo‘ysang, qo‘li bilan ko‘chirib tashlaydi*”. Tarjimadan kelib chiqqan holda ayta olamizki, mazkur maqol uzoq o‘tmishda yaratilgan. Chunki unda qo‘llangan “bolt” ya‘ni “kamon o‘qi” o‘tmishda, urush davrlarida yaratilgani sezilib turibdi. Maqollardagi konkret sinfiy funktsiya ularning nutqda ishlatilish o‘rniga qarab belgilanadi. O‘zbek xalq maqollaridan “*Egrining omochi yerga botmas*” maqoli jamiyatning qaysi davrda yaratilganligini anglash bir qarashda qiyin. Maqol tarkibidagi “omoch” so‘zining qo‘llanilishi fikrimizni dalillaydi. Chunki bu leksema ham hozirgi kunda deyarli qo‘llanilmaydi. Albatta, bu so‘z maqolda ko‘chma ma‘no ifodalagan, lekin mazkur so‘zning tilda faol emasligi ham maqolning tarixiylikini ko‘rsatadi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Maqollarda hayvonlar orqali majoziy tarzda ma’lum bir ma’no ifodalanadi. Masalan, “*Better be the head of a dog than the tail of a lion*” maqolini qiyosiy kognitiv tahlil qilsak, “dog”, “lion” so‘zlari orqali insonlarning majoziy obrazlari ifodalangan va o‘zbek tilidagi “*Arslonning o‘ligi - sichqonning tirigi*” maqoliga ekvivalent bo‘la oladi. Bunday maqollarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin:

Every bird likes its own nest. (Har qush o‘z uyasini der) *O‘rgimchak ham o‘z uyasini der.*

It is an ill bird that fouls its own nest. (Yomon qush o‘z uyasini bulg‘ar) *O‘lgisi kelgan shoqol iniga qarab uvillar.*

Old birds are not to be caught with chaff. (Qari qushni tuzoq bilan tutib bo‘lmas) *To‘rga tushgan baliq qarmoqdan qo‘rqmas.*

Yuqorida keltirilgan maqollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilidagi qush ma’nosida kelgan so‘zlar o‘zbek tilida boshqa hayvonlar nomi bilan ishlatilishi mumkin. Ya’ni ingliz maqollarida ko‘p ishlatiladigan qush timsoli o‘zbek xalq maqollarida turli hayvon, hasharotlar timsolida beriladi. Milliy-madaniy semantika xalqning qadriyatlarini, an’analari bilan bir qatorda geografik aspektlarini ham o‘ziga singdiradi. Yevropa o‘ziga xos yashil tabiat va o‘rmonzorlarga ega, Yevropa qit’asida istiqomat qiluvchi xalqlar qatori inglizlarning hayotida qushlar rolining ustunligi xalq maqollarida ham aks etmoqda. Bizning mamlakatimizda esa iqlim nisbatan iliq bo‘lib, quyoshli yurtimiz turli hasharot va hayvonlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham aksariyat maqollarimiz tarkibida ularning nomlari o‘rin olgan.

Maqollarda xalq taomlari milliy koloritni ta’minlaydigan obrazlardan biridir. Masalan ingliz tilidagi ayrim maqollarni keltirsak:

Every cook praises his own broth - Har bir oshpaz o‘z sho‘rvasini maqtaydi.

Too many cooks spoil the broth - Oshpaz ko‘p bo‘lsa, sho‘rva buziladi.

O‘zbek tilida: *Har kuni yema palovni, har kuni yoq olovni;*

Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye,

Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye.

Ko‘rinib turibdiki, “palov” o‘zbek xalqining sevimli milliy taomlaridan biri bo‘lib, maqollarda ham o‘z ishtirokini topa olgan. Ingliz xalq maqollarida esa “soup” ya’ni “sho‘rva” qo‘llaniladi. Inglizlarda ushbu taom kundalik hayotda ko‘p iste’mol qilinishi sababli maqollar tarkibida ko‘p uchraydi.

Ingliz va o‘zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosi bo‘lib, ularda millatning turmush tarzi, dunyoqarashi, fe’l-atvori va e’tiqodi aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda har ikkala xalqning madaniyati, tili bir-biriga bog‘liq

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ekanligi ahamiyatlidir. Shunga ko‘ra, tahlil jarayonida ayrim maqollar ba‘zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba‘zan har xil ifodalar bilan o‘z xususiyatlarini ochib beradi. Shu o‘rinda ingliz va o‘zbek maqollarida xalqning o‘tmishidan bugungi kunigacha bo‘lgan o‘zbek va ingliz millatiga xos urf-odatlar bilan bir qatorda mazkur xalqlarning mentalitetiga xos jihatlar, ularning umumiy, farqli tomonlari aks etgan. Maqollarning semantik lingvokulturologik jihatlarini chuqur o‘rganar ekanmiz, ularni semantik tahlil qilish orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobillarini to‘g‘ri tanlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karamatova K., Karamatov H. PROVERBS - MAQOLLAR - ПОСЛОВИЦЫ. . – Toshkent : Mehnat, 2000.
2. Kurbanova M., Yo‘ldasheva M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
3. Mamarasulova Sh. Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi. – Samarqand , 2020.
4. Mamatmuratova O. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “Vatan” konsepti ifodalangan maqollar tahlili. Maqola.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2005.